

Namangan Muxandislik Texnologiya Instituti

Kimyo texnologiya fakulteti ***QXMT*** kafedrası
Himoyalangan joy sabzavotchiligi fanidan



Refarat

Topshirdi: Eshonto'rayev A

Qabul qildi: katta o'qit. To'raqulov D

2015

HIMOYALANGAN JOY INSHOATLARI

Himoyalangan joy inshootlari asosan uch turga, ilitilgan yer, parnik va issiqxonalarga bo'linadi



ILITILGAN YER




PARNIKLAR





ISSIQXONALAR

ILITILGAN YERLAR – Yon tomonlarida to'sig'i bo'lmagan sodda kichik xajmli vaqtinchalik qurilmalar.

Bu gurux qurilmalar o'simliklarni ustini yopishiga ko'ra *sinchli* va *sinchsiz* bo'ladi.



Sinchsiz yopqichlar – Pastkam, tayanch tirkagi bo'lmaydi va ular tuproqdan qilingan o'rkachlar yordamida to'g'ridan- to'g'ri o'simlik ustiga yopiladi.




Ushbu o'rkachlar qo'l mexnati yoki maxsus agregatlar yordamida yasaladi.


O'rkach yon tomonlariga ekilgan o'simliklar qatorlari orasidagi masofa – 50 sm, yonidagi o'rkachlarga ekib xosil qilingan lentalar oralig'idagi masofa esa 90 sm bo'ladi. O'simlik o'sib plyonkaga yetgan vaqtda u boshqa agregat bilan yig'ishtirib olinadi.

SINCHLI PLYONKALI YOPQICHLAR . Ularda plyo'nka uchun similar, plastmassa trubalar, tol novdalari, yog'ochlar va boshqalardan tayyorlangan sinchlar tayanch vazifasini bajaradi. Ular sinchning konfiguratsiyasiga ko'ra *chodirsimon* va *arkasimon* guruxlarga bo'linadi.

agroazbuka.com



Chodirsimon plyonkali yopg'ichlar yog'och chorpoya yoki uchburchak shakilli vertikal yog'och bag'azdan yasalib ularni pastki qismi tuproqqa qadaladi.




Arkasimon sinchli plyonkali yopqichlar yoysimon sinchli bo'lib, sinchlari po'lat sim, plastmassa yoki alyumin trubalar, tol novdalari va boshqa egiluvchi materillardan tayyorlanadi.



Shu jumladan ko'chma yopqichlardan ham foydalaniladi. Ko'chiriladigan va surib xarakatlantiriladigan yopqichlarning oldi va orqa tomoni g'altakka o'raladigan parda bilan yopiladi. Shu bilan birga ularni maxsus tutqichlari ham bo'ladi.



PARNIKLAR – stotsionar yoki ko'chma nur o'tkazmaydigan yon to'siqlari bo'lgan va yorug'lik o'tkazadigan qoplamali kichik xajmdagi inshootdir.




Parniklar qoplamasi nishabining soni, yerga joylashtirilishiga ko'ra, konstruksiyasiga, nur o'tkazadigan qoplamasiga, isitish usuliga, foydalanish muddatlariga ko'ra biri ikkinchisidan farq qiladi.

Bir nishabli parniklar - O'lchami $1,5 \times 3$ m bo'lib uning uchun 0,5-0,6 m chuqurlikda o'ra tayyorlanadi. O'raning burchaklariga va bo'yini uzun tomonlari o'rtasiga ustunlar o'rnatilib, ularga kesaki qoqiladi.



Parnik romlari yog'och reykalardan yasali maxsus xalqalar yordamida baland kesakiga qotiriladi. Issiqni yaxshi saqlanishi uchun romning ikki tomoni xam plyonka bilan qoplanadi. Qoplangan plyonkalar oralig'idagi bo'shliq 3-4 sm bo'lishi kerak. Parnik romlari ochilgan vaqtda yog'och tirgovuch tirab qo'yiladi.



Ikki nishabli parniklar - Parnikning taxtadan yasalgan kesakisi va reykalari va stropillari uni asosini tashkil etib, ularni yuqori tomoni sarrobgga briktiriladi. Bu parniklarda plyonka bag'azlarga oshiq-moshiqlar bilan joylashtirilgan romlarga maxkamlanadi, u parnikni ko'ndalang tomoni bo'ylab osilib turadi.



Plyonkali yig'ma ko'chiriladigan parnik Uzunligi 6 m bo'lgan parnik maydoni $9,6 \text{ m}^2$ ni tashkil etadi U uchta stropil bag'azlar, ikki yon taxtalardan va plyonkali qoplamadan yig'iladi.



Bunday tipdagi parniklarni hozirda sanoat korxonalarida zamonaviy ko'rinishda tiklashga tayyor xolatda ham ishlab chiqarilmoqda



ISSIQXONALAR

Yil mobaynida yoki baxor, yoz, kuz va qish faslida ishlatiladigan yon to'siqlari va nur o'tkazadigan qoplamasi bo'lgan katta xajmli ekin o'stiriladigan binolardir.



Issiqxonalarni parniklardan asosiy farqi yer yuzidan to qoplamasigacha bo'lgan masofasining katta ekanligi xamda mashina va xizmatchilarning ishlash davrida qurilma ichida bo'lishligidir.



Issiqxonalar – bu ekin o'stiriladigan binolarning eng takomillashgan turi bo'lib, ularda zamonaviy muxandislik vositalari yordamida o'simliklarni o'stirish uchun maqbul sharoitlarni yaratib berish mumkun. Issiqxonalarning vazifasi mavsumdan tashqari vaqtlarda maxsulot yetishtirish va shuningdek, ximoyalangan xamda ochiq yer uchun ko'chat yetishtirib berishdan iborat.




Issiqxonalar biri ikkinchisidan bir qator foydalanish va qurilish belgilari bilan farqlanib, ulardan eng asosiylari quidagilardir:

Vazifasiga ko'ra – sabzavot tezlashtirib o'stiriladigan, ko'chat yetishtiradigan, ko'chat - sabzavot yetishtiradigan.



Sanoat korxonalarining yordamchi xo'jaliklari uchun mo'ljallangan issiqxonalar



Bunday komplekslarda yetishtirilgan maxsulotlar qadoqlash sexlariga yuboriladi va xo kazo.

Issiqxonalardan foydalanish muddatiga ko'ra – qishki, yil mobaynida foydalaniladigan, baxorgi. Ular qaysi maqsadda foydalanilishiga ko'ra sabzavot yoki ko'chat yetishtiriladigan bo'ladi.



Baxorgi issiqxonalarda 3 - suratdagidek yozning issiq kunlarida issiqxona qoplamasi olib tashlanadi.

Isitish usuli bo'yicha – quyosh yordamida (gelioissiqxonalar), biologik, texnik turlarga bo'linadi.



Biologik isitiladigan issiqxonalarda chirindi yoki shunga o'xshash qorishmalardan maxsus maydonchalar tayyorlanadi.

Maxsus texnologiyalar yordamida isitiladigan issiqxonalar esa sun'iy ravishda meyorlarga amal qilgan xolda isitiladi. Bunday texnologiyalarni turi juda ko'p.



Nur o'tkazadigan qoplamasining turi bo'yicha – oynavand, plyonkali, oynaplastikli, qo'ziqorin yetishtiriladigan qorong'u xonalar, suniy yoritiladigan nur o'tkazmaydigan qoplamali issiqxonalar.



Qoplamalarni maxkamlanisi bo'yicha – oynavandlarda – statsionar va panelsimon; plyonklilarda – pardasimon va panelsimon.



Zvenolar soni bo'yicha – bir zvenoli



Bloklilari bir necha zvenolardan iborat bo'lib, o'zaro metal tarnovlar, ichki ustunlar, yordamida bir-biriga birlashtirilgan.



Qoplamalari shakli va konfiguratsiyasi bo'yicha – to'g'ri (yassi), qiya (bir nishabli, ikki nishabli yoki angarsimon), poligonal (gumbazsiz), arkasimon, yarim yoysimon bo'ladi.



Foydalanish ketma-ketligiga ko'ra – statsionar (bir joyga o'rnatiladi va ishlatishga yaroqsiz xolatga kelguncha ishlatiladi), *nostatsionar* (mavsum mobaynida bir ekindan ikkinchisiga ko'chirib o'rnatiladigan muvaqqat issiqxonalar)




Yerga joylashtirilishiga ko'ra – o'rali va yerga yuza o'rnatilgan bo'ladi.



Ichki maydonidan foydalanish bo'yicha – yerli (o'simliklar egatlarda yoki tekis maydonda), *so'kichaklarda* (tuproq aralashmasi yoki substratlarda), *oxirsimon* moslamalarda o'stiriladigan.



O'simliklarni joylashtirish usuli bo'yicha – bir yarusli, ikki yarusli, ko'p yarusli va konveyrli bo'ladi. Yerli issiqxonalar doimo bir yarusli bo'ladi, so'kichaklilari esa ikki va ko'p yarusli bo'ladi.



Ildizdan oziqlantirish usullari bo'yicha – tuproqli, gidropon, aeropon, fitotronli va qo'ziqorinxonalarga bo'linadi.



Tayanchlarini mavjudligiga ko'ra - sinchli, sinchsiz.



Yirik qoplamali issiqxonalarda tayanch sinchlardan foydalanmaslik quyidagidek noxush oqibatlarga olib kelishi mumkun.



O'zbekistonda xam juda ko'plab, zamonaviy ko'mplekslashgan issiqxonalar barpo etilmoqda. Xususan...

O'zbekistonda namunaviy issiqxonalar barpo etildi.

2013 - yilning 25-noyabr kuni Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy-tadqiqot va o'quv-tajriba stansiyasida Janubiy Korea Xalqaro hamkorlik agentligining KOICA O'zbekistondagi idorasi granti asosida "O'zbekistonda na'munaviy issiqxonalar barpo etish" loyihasi doirasida qurib ishga tushirilgan zamonaviy issiqxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi mutaxassislari, Ozbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi olimlari, Toshkent davlat agrar universiteti professor-o'qituvchilari, talabalar, keng jamoatchilik vakillari, Toshkent viloyati fermerlari qatnashishdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida xorijiy investitsiyalar ishtirokida qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Janubiy Korea Xalqaro hamkorlik agentligi KOICA ning O'zbekistondagi idorasi granti asosida mamlakatimizda bir nechta namunaviy issiqxonalar barpo etilib ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-noyabrda qabul qilingan "Korea Respublikasi Hukumati grant mablag'larini jalb etgan holda "O'zbekistonda namunaviy issiqxonalarni barpo etish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida Zangiota tumanida joylashgan maydoni 1500 m² bo'lgan ko'chat yetishtiruvchi issiqxona, Toshkent davlat agrar universitetining Qibray tumanidagi ilmiy-tadqiqot va o'quv-tajriba stansiyasida hamda Yuqori Chirchiq tumanidagi Ahmad Yassaviy nomli fermer xo'jaliklari uyushmasi hududida har birining maydoni 5000m² bo'lgan mahsulot yetishtiruvchi 2 ta issiqxona qurib foydalanishga topshirildi. Janubiy Korea "Myung Sung Placon Ltd." qurilish kompaniyasi tomonidan zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida barpo etilgan issiqxonalarda foydalaniladigan barcha jihozlar Koreadan keltirilgan.

Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy-tadqiqot va o'quv-tajriba stansiyasida qurilgan issiqxonada talabalar bevosita o'quv-amaliyot mashg'ulotlarini o'tash va zamonaviy ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'lish bilan birlikda, hozirda mahsulot yetishtirish ishlari boshlab yuborildi. Pomidor ko'chatlari qad rostlab, xosilga kirmoqda. Bu zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xolda yuqori sifalli xosil yetishtirish va universitet jamoasini, qolaversa xalqimizni arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, issiqxonada yosh olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olim borishda keng foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratildi. Issiqxona тырнармфермерлар uchun ham malakaviy o'quv kurslarini tashkil etish mumkin.

Tadbirda O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi Bosh direktori – vazir o'rinbosari Sh.Nurmatov, Toshkent davlat agrar universiteti rektori B.Sulaymonov va Korea Respublikasining mamlakatimizdagi elchixonasining vakili Be Xanjin janoblari so'zga chiqdilar. Manb'a: O'zA



KOICA granti asosida qurilgan zamonaviy issiqxonaning ochilish marosimi

